

Qardosh bo'lmagan tillarning ayrim o'xshash jihatlari

MOHIDIL JONIQULOVNA(tadqiqotchi)

Ma'lumki,o'zaro qarindosh bo'lgan tillar grammatik qurilishi,leksik va sintaktik tuzilishi,fonetik hamda affiksial xususiyatlari bilan bir-biriga o'xshaydi.Bunday o'xshashlik ularning lug'at boyliklarida,gap qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi.Bir oilaga kiruvchi tillardagi mushtarak jihatlar tarixiy-ijtimoiy taraqqiyot mahsuli sanaladi.Masalan,Oltay tillar oilasiga mansub bir necha til o'rtasidagi shunday mushtaraklikni ko'rib chiqamiz.Leksik o'xshashlik:o'zbek tilida "temir",qozoq tilida "temer",qirg'iz tilida ham"temir",ozarboyjon tilida "demir".Affiksial o'xshashlik:o'zbek tilida "ko'chalar",qozoq tilida "kocholor",qirg'iz tilida ham "ko'chalar",uyg'ur tilida "kochilar" va boshqalar.

Dunyo tillari orasida shunday tillar borki,bir oila yoki guruhga mansub bo'lmasa-da ba'zi jihatlari bir-biriga juda o'xshash.O'zbek va fors tillari aynan shunday tillar sirasiga kiradio.Vaholanki,o'zbek tili Oltay tillar oilasiga,fors tili esa Hind-Yevropa tillar oilasiga mansub.Bu ikki til orasidagi ba'zi bir o'xshashliklarga to'xtalib o'tamiz.1995-yil 24-avgustda tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ning "Asos va qo'shimchalar imlosi" bandiga muvofiq kishilik olmoshlarining I va II shaxs birligida,ya'ni "men va sen"ga qaratqich,tushum kelishiklarining qo'shimchalari qo'shilganda bitta "n" tovushi tushib qoladi.Ya'ni "men+ni=meni","sen+ni=seni".Fors tilida ham "ni" qo'shimchasini ifodalovchi "ro" ko'makchisi kishilik olmoshlarining I va II shaxs birligiga qo'shilganda,"n" va "o'" tovushlari tushib qoladi:"man+ro=maro","to'+ro=to'ro.

Maskur tillardagi o'xshashlikka yana bir misol.Har ikki tilda ham I va II birlik hamda ko'plik qo'shimchalari "o,e,u" unlilari bilan tugaydigan otlarga qo'shilganda bitta "y" tovushi ortadi.

O'zbek tilida
Parvo+im=parvoyim,parvo+ing=parvoying,parvo+ingiz=parvoyingiz
Mavqe+im=mavqeyim,mavqe+ing=mavqeying,mavqe+ingiz=mavqeyingi

Fors tilida
Po+am=poyam(oyog'im),po+at=poyat(oyog'ing)
Ru+am=ruyam(yuzim),ru+at=ruyat(yuzing)